PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

“2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH” STRATEGIYASI VA UNING AMALGA OSHIRILISHI

Axmedov Alim Boboniyozovich
Termiz davlat universiteti
"Iqtisodiyot"kafedrasi katta
o'qituvchisi. i.f.f.d PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.24411679

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi va uning amalga oshirilish bosqichlari tahlil qilinadi. Strategiyaning mazmuni, institutsional asoslari hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan uyg‘unligi ko‘rib chiqiladi. Mamlakat uchun mavjud imkoniyatlar (quyosh va shamol salohiyati, xalqaro moliyalashtirish, energiya tejamkorlik zahiralari), amalga oshirishdagi asosiy muammolar (qazilma yoqilg‘iga qaramlik, infratuzilma va moliyalashtirish cheklovlari, suv tanqisligi, ma’lumotlar sifati) va ularni hal etish bo‘yicha takliflar bayon etiladi. Xulosada strategiya muvaffaqiyati uchun ustuvor chora-tadbirlar tizimlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil o‘sish, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, iqlim o‘zgarishi, yashil moliya, sirkulyar iqtisodiyot, O‘zbekiston – 2030.

Kirish

Iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va global uglerodsizlanish tendensiyalari iqtisodiy o‘sish modelini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston uchun bu masala alohida dolzarb: mamlakat suv resurslariga bog‘liq, Orol dengizi inqirozining oqibatlarini boshdan kechirmoqda, energetika sektori esa katta ulushda tabiiy gazga tayanadi. Shu sababli yashil iqtisodiyotga o‘tish ekologik majburiyat bo‘lib qolmasdan, raqobatbardoshlik va energetik xavfsizlikni ta’minlash vositasi hamdir. Yashil iqtisodiyotga o‘tish mamlakatimizda iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu siyosatning asosiy mazmuni iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashdan iborat. “Yashil iqtisodiyot” deganda tabiiy resurslarni tejaydigan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanadigan, chiqindilarni kamaytiradigan, ekologik xavfsizlikni ta’minlaydigan hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan iqtisodiy rivojlanish modeli tushuniladi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishdagi strategik siyosat 2019-yil 4-oktabrda qabul qilingan Prezidentning PQ-4477-son qarori bilan boshlangan. Qaror bilan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan.

Asosiy qism.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy maqsadi issiqxona gazlari va chiqindilarini 2010 yilga nisbatan kamaytirish, aholi va atrof-muhit tozaligini saqlash, elektr energiya samaradorligini oshirish, suv yer resurslaridan oqilona foydalanishdan iborat. Yashil iqtisodiyotga o‘tish siyosati bir qator

bosqichlarda amalga oshirilmoqda. 2022-yil dekabrda "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi, sanoat uchun konsepsiya, harakatlar rejasi tasdiqlandi va idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi. 2023-yilda IHTT (OECD) yashil o'sish ko'rsatkichlari asosida birinchi monitoring hisobotini e'lon qildi va strategiya ijrosini sakkizta milliy ko'rsatkich bilan kuzatdi. 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasini shu yilda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi qabul qilindi. Dastur loyihasida yashil bino sertifikatini joriy etish va Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi turistik shaharlarda kompleks yashil rivojlantirish dasturi nazarda tutilgan edi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan: Quyosh elektr stansiyalari qurilmoqda. Shamol elektr stansiyalari loyihalari amalga oshirilmoqda. Xalqaro investorlar bilan energetika sohasida hamkorlik kengaymoqda. Elektr energiyasini saqlash tizimlarini rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek qishloq xo‘jaligi sohasida yashil texnologiyalar joriy etilmoqda. Masalan Tomchilatib sug‘orish tizimlari joriy qilinmoqda. Yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Sug‘orish kanallari va nasos stansiyalari modernizatsiya qilinmoqda. Suv hisobini yuritish va nazorat qilish tizimlari takomillashtirilmoqda. Suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan innovatsion loyihalar qo‘llab-quvvatlanmoqda. Albatta bu borada bir qator muammolar ham ko‘zga tashlanadi. Elektr va issiqlik ishlab chiqarishda tabiiy gaz va ko‘mirning ulushi katta. Yangi quvvatlarni tarmoqqa ulash tezligi iste’mol o‘sishidan orqada qolishi xavfi mavjud, bu esa qazilma yoqilg‘i ulushini kamaytirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek iqlim o‘zgarishi suv resurslariga bosimni kuchaytirmoqda. Sug‘orish tizimlarining samaradorligi past, suv yo‘qotishlari yuqori. Orol bo‘yi hududida tuproq sho‘rlanishi va cho‘llanish jarayonlari yashil o‘tishning qo‘shimcha murakkab sharoitini yaratadi. Bu kabi muammolar talaygina. Bularga amaliy yechim kerak.

1. Energetika tarkibini diversifikatsiya qilish. Qayta tiklanuvchi manbalar uchun aniq yillik quvvat ulush jadvalini belgilash, tarmoqqa ulanish tartibini soddalashtirish, ochiq va shaffof auksionlarni davom ettirish, shuningdek, quyosh-saqlash va gibrid loyihalarni ustuvor qilish.

2. Tarmoq va saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Aqlli hisoblagichlar, raqamli yuklamani boshqarish, batareyali saqlash tizimlari va hududlararo uzatish quvvatlarini kengaytirish orqali o‘zgaruvchan generatsiyani tizimga xavfsiz integratsiya qilish.

3. Yashil moliya tizimini rivojlantirish. Yashil taksonomiyani joriy etish, yashil obligatsiyalar chiqarishni kengaytirish, banklar uchun imtiyozli kredit liniyalari va davlat kafolatlarini yaratish, xalqaro iqlim fondlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, kichik biznes uchun soddalashtirilgan moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Strategiyani amalga oshirishdagi muammolarga duch kelmoqdamiz.

1. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi.
2. Texnologik qaramlik.
3. Suv resurslari tanqisligi.
4. Ekologik madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi.
5. Mutaxassislar yetishmasligi.
6. Monitoring va nazorat masalalari.

Albatta yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. 2030-yilgacha bo‘lgan boshqa strategik hujjatlarda ham yashil rivojlanish ko‘rsatkichlari

kengaytirilgan. Jumladan, O‘zbekiston–2030 strategiyasi doirasida 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 000 MVtga yetkazish, shahar va tumanlardagi yashil qoplamani 30 foizga oshirish kabi ko‘rsatkichlar belgilangan. Bu ko‘rsatkichlarni 2022-yildagi PQ-436-son qarorida belgilangan 15 GVtlik maqsad bilan aynan bir xil hujjatning ko‘rsatkichi sifatida talqin qilmaslik kerak.

Shu bilan birga viloyatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun bir qator imkoniyatlar mavjud: Masalan quyosh energetikasi. Surxondaryo viloyatining quyoshli kunlari ko‘pligi quyosh elektr stansiyalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Quyosh panellaridan foydalanish sanoat korxonalari, fermer xo‘jaliklari va ijtimoiy obyektlarning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini qisman qoplash imkonini beradi.suv tejovchi texnologiyalar. Viloyatda qishloq xo‘jaligi muhim iqtisodiy tarmoqlardan biri bo‘lgani sababli tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish va suv hisobini raqamlashtirish texnologiyalarini kengaytirish dolzarb hisoblanadi. Ekologik qishloq xo‘jaligi. Tuproq unumdorligini saqlash, kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish, organik o‘g‘itlarni qo‘llash va yer degradatsiyasining oldini olish yashil iqtisodiyotning muhim vazifalaridir. Sanoatda energiya samaradorligi. Termiz, Denov, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi va boshqa hududlardagi ishlab chiqarish korxonalarida energiya tejamkor uskunalarni joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, viloyatda chiqindilarni qayta ishlash, yashil hududlarni kengaytirish va ekologik turizmni rivojlantirish ham istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi. Kelgusida quyidagi vazifalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Yashil investitsiyalar hajmini oshirish.
2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hududlar kesimida kengaytirish.
3. Sanoat korxonalarida ekologik audit tizimini rivojlantirish.
4. Suv va energiya sarfini raqamli nazorat qilish.
5. Chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini takomillashtirish.
6. Yashil iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash.
7. Ekologik ta’lim va aholining ekologik madaniyatini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan muhim strategik hujjat hisoblanadi. Ushbu strategiya iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni o‘zaro uyg‘unlashtirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Kelgusida strategiya samaradorligini oshirish uchun hududlarning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, aniq loyihalarni amalga oshirish, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish va natijadorlikni baholash mexanizmlarini kuchaytirish muhimdir. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatida quyosh energetikasi, suv tejovchi texnologiyalar, ekologik qishloq xo‘jaligi va yashil turizmni rivojlantirish orqali yashil iqtisodiyotning hududiy modelini shakllantirish mumkin. Strategiyaning muvaffaqiyati faqat hujjatlar sonida emas, balki aniq ko‘rsatkichlarning yillik yangilanishi, mustaqil baholash va xususiy sektor ishtirokida o‘lchanadi. Kelgusi tadqiqotlar uchun mintaqaviy kesimdagi tahlil, loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va uglerod narxlash mexanizmlarining ta’sirini o‘rganish istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston uchun bugungi tanlov emas, ertangi farovonlikning poydevoridir. 2019-yilgi strategiyadan 2025-yilgi davlat

dasturigacha bo‘lgan yo‘l mamlakatda mustahkam me‘yoriy va institutsional zamin yaratdi. Quyoshga boy yurt, tejamkorlik zahiralari, xalqaro hamkorlik va yangi eksport bozorlari bu yo‘lda eng katta tayanchdir. Biroq maqsadga erishish yo‘lida to‘siqlar ham bor: qazilma yoqilg‘iga qaramlik, eskirgan tarmoqlar, moliyalashtirishdagi cheklovlar, suv tanqisligi va chiqindi boshqaruvidagi bo‘shliqlar. Ularni yengish uchun energetika tarkibini diversifikatsiya qilish, yashil moliya tizimini shakllantirish, suv va energiyadan oqilona foydalanish, sirkulyar iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish hamda ochiq monitoringni kuchaytirish zarur. Bu jarayonda adolatli o‘tish tamoyili har bir oila va hudud uchun o‘zgarishlar og‘ir yuk emas, yangi imkoniyat bo‘lishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli qarori “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi qarori: 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sishni ta’minlash dasturi, konsepsiya va harakatlar rejasi to‘g‘risida. President.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Lex.uz
4. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida Prezident farmoni (2025). Gov.uz, Uza.uz.
5. IHTT (OECD). O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish: 2023 yildagi vaziyat. Yashil o‘sish ko‘rsatkichlari asosida taraqqiyot monitoringi, asosiy hisobot, 2023-yil sentabr.
6. Abdullayeva M., Nuriddinov K. Yashil iqtisodiyotning mohiyati va O‘zbekiston uchun ahamiyati. Green Economy and Development, 2026, 4(2).
7. Strategik rivojlanish va islohotlar agentligining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ijrosi monitoringi (2026-yil birinchi yarim yilligi). Zamin.uz.